



YOSHLARNI KASBGA YO`NALTIRISHDA PSIXOLOGIK TRENINGLARNING IMKONIYATLARI

Axmedova Gavhar Panjiyevna

*Qashqadaryo viloyati Kasbi tuman MMTBga qarashli 44-maktab amaliyotchi
psixologi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlarni kasbga yo`naltirishda psixologik treninglarning imkoniyatlari haqida ma`lumot berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *kasbga yo`naltirish, trening, ta`lim-tarbiya, tasavvur, individual yondashuv, psixologik profilaktika, psixologik iqlim, kompetensiya, kommunikativ ko`nikmalar*

Yoshlarni kasbga yo`naltirish, to`g`ri kasb tanlashlariga ko`maklashish bugungi kunda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar zimmasidagi muhim vazifalardan biri bo`lib kelmoqda. Sharq mutafakkirlari ta`limotida o`g`il va qizlarga ta`lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o`rgatish muxim o`rin egallaydi. Dono halqimiz: “Ustozidan o`zmagan shogird — shogird emas”, “Hunarli kishi aslo xor bo`lmas”, “Ustoz otadek ulug`”, “Ta`lim bergan ustozingdan ayrilma” singari misralarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo`lib ulg`ayishini orzu qilganlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to`g`risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta`lim - so`z va ko`nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo`lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo`lib kelgan. Buyuk qomusiy



olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan Sharq mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda ko'rilgan bo'lib, u bolaning fe'l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattik, tan jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma'qulligini ko'rsatgan. Mutafakkirning "Donishnoma", "Uy xo'jaligi", "Tib qonunlari" asarlari mamlakatimiz xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o'rin tutadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi hamma taraflama tan olingan, lekin undan amalda kam hollarda foydalaniladi. Bunga maktabda o'qituvchilarning bola haqida ko'p gapirishlari dalil bo'la oladi. Chunki, maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan muttaxassilar kamdan-kam hollarda uchraydi. Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib alohida o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni xisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi. Psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri pedagogik-psixologik konsiliumni tashkil etishdir. Yu.K.Babanskiyning ta'kidlashicha, o'quvchilarni o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun, to'liq yozma tavsifnomalar yozishdan ko'ra sinf o'qituvchilarining o'quvchilar haqidagi fikrlarini jamoa bo'lib muxokama qilish, sinfga va o'quvchilarga individual yondashuv rejalarini ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Bunday jamoa bo'lib, muhokama qilishlarni shartli ravishda pedagogik va psixologik konsilium deb ataladi. Bolaning rivojlanishi uchun qulay psixologik iqlim yaratishda bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti muxim xisoblanadi.



O`smirlarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti ular shaxsining shakllanishida muxim omil xisoblanadi. Muloqotdagi muvaffaqiyatsizlik, shunday ichki noqulaylikka, o`zini yomon xis qilishga olib keladi-ki, uning o`rnini hayotning boshqa sohalaridagi xech qanday ko`rsatkichlar bosa olmaydi. Ularda asosan muloqot - qadriyatlar mazmunini belgilaydi. Bu yosh tengdoshlari orasida o`zini ko`rsatishga, o`zini va suhbatdoshini yaxshiroq bilishga intilish, atrof muhitni bilish kabi muloqot motivlari jamoa tomonidan tan olinishi, o`ziga ishonish, xatti-harakatlarning mustaxkamligi va yuksak umumiy madaniyat, o`z fikriga ega bo`lish, mustahkam iroda, o`z-o`zini nazorat qilish, xalollik, ko`ngilchanlik kabi qadriyatlar tizimining yuzaga kelishiga sabab bo`ladi. Ta`lim muassasalarida kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda o`quv seminarlar, trening, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil etish, ilg`or tajribalarni o`rganishni va ommalashtirish, ommaviy axborot vositalarida chiqishlar yaxshi natija beradi. Ta`lim oluvchilarning ijodiy amaliy faoliyatlari natijasida yangi bilimlar va ko`nikmalarga ega bo`lishlarida treninglarning ahamiyati katta.

Quyida kasbga yo`naltirishda qo`llaniladigan psixogimnastik mashq, treninglardan misol keltiramiz: "Men faolman" psixogimnastik o`yin Maqsad: guruhdagi o`quvchilarni faollashtirish va jipslashtirish, diqqatni oshirish. Vaqti: 15 daqiqa Mashqni olib borilish: ishtirokchilar 4 ta guruhga bo`linadilar, har bir guruhdan ikkitadan ishtirokchi o`rtaga chiqadi, boshlovchi ishtirokchilarga kimning qo`l soati bo`lsa ko`rsatsin deb topshiriq beradi. Ishtirokchilardan birining o`zida qo`l soati bo`lmasa, guruhga murojaat qiladi. Guruhdagilar o`zidagi qo`l soatini yechib beradilar. Ishtirokchilar esa belgilangan joyga yetib kelishlari zarur. Ishtirokchilar topolmasa, belgilangan joyga yetib kelmasa, o`yinni tark etadilar. Mana shu tarzda o`yin davom etadi. O`yin oxirida ikki ishtirokchi qolganda ularning uyali aloqa (telefon) lariga guruhdagilar qo`ng`iroqni amalga oshiradilar. Kimning birinchi bo`lib uyali aloqasi jiringlasa shu guruh g`olib bo`ladi.



Kutilayotgan natija: o`quvchilarning faolligi oshiriladi, guruh jipslashadi, diqqat oshiriladi. “Men birinchiman” mashqi Maqsad: o`quvchilarning o`z-o`ziga beradigan bahosini oshirish, har bir shaxsni o`zining takrorlanmas va noyob xususiyatlari borligini anglatish. Trener ko`rsatmasi: har bir inson takrorlanmasdir. O`ylab ko`ringchi, sizning takrorlanmas va o`ziga xos xususiyatingiz nimada? Har biringizning albatta o`ziga xos xususiyatingiz bor, “Men sohada birinchiman” deb o`z xususiyatingizni aytishingiz lozim. Albatta har biringiz bu vazifani uddalay olasiz, ammo hozir ushbu jumlaning noyob ohangda aytishi mumkin bo`lgan 3 nafarishtirokchini o`rnidan turishini so`rardim. “Kasblar qaqida bahs” - “Ha, lekin...” Ishtirokchilar juft-juft bo`lib bo`linishadi. Har bir juftlikda kelajakda ularning biri egallamoqchi bo`lgan kasb tanlanadi.

Topshiriq, o`z tanlovini asoslashdan iborat. Bahs quyidagi printsiplarga bo`yicha quriladi: “ha, lekin...” Birinchi ishtirokchi: “Menga bu kasb yoqadi..., chunki. Ikkinchi ishtirokchi: “Ha, lekin...” Kim bu kasb tanlagan ishtirokchiga qanchalik mosligini yaxshilab asoslab berarkin? So`ngra rollar almashinadi. Muhokama bo`lib o`tadi. Bahs haqida taassurotlar almashinadi. “10 yildan keyingi uchrashuv” Barcha ishtirokchilar juft-juft bo`lib bo`linishadi. Trener quyidagilarni aytadi: “Kelinglar, soatlaringizni 10 yil oldingasurib qo`yamiz. Endi biz ___yildamiz. Hayotimizda ko`p narsalar o`zgargan. Hozir siz ta`tilsiz. Yoz. Siz shaharga o`zingiz o`qigan maktabga keldingiz. Ko`chada sinfdoshlaringiz bilan uchrashib qoldingiz. Bu yillarda nimalar ro`y bergani, nima bilan shug`ullanganingiz haqida jonli suhbat boshlanib ketdi. Sizga 5 minut vaqt beriladi”. Suhbat tugangandan so`ng barcha ishtirokchilar doira bo`ylab o`tirishadi, har bir ishtirokchini guruhga tanishtiriladi. Muhokama. Shunday qilib, treninglar orqali o`quvchilarda kommunikativ ko`nikmalar, intellektual hamda amaliy kompetentsiyalar shakllantirish kabi ijobiy maqsadlarga erishiladi.



Adabiyotlar:

1. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. Toshkent, 2007.
2. Rashidov F.X., Xodjaboyev A.R., Jo'rayev R.K., Ma'sudov X.F. va boshqalar "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limdagi tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklar tasniflagichi". Toshkent, 2000 yil.
3. K.B.Qodirov "Kasb tanlashga tayyorgarlikning psixologik jihatlari va kasbiy tashxis". Toshkent, 2001 yil.